



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi*

_____ning
*20__-20__-o'quv yilida 9-sinflar uchun
III chorak O'zbekiston tarixi fanidan*

DARS

ISHLANMALARI

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 9-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Ashtarxoni davrida binokorlik va ta’lim (Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonini e’lon qilish)	1		
2.	Mang‘itlar boshqaruv davri	1		
3.	Mang‘itlar boshqaruv davri	1		
4.	Mang‘itlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot	1		
5.	Mang‘itlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot	1		
6.	Mang‘itlar davrida ilm-fan va madaniyat	1		
7.	Mang‘itlar davrida ilm-fan va madaniyat	1		
8.	5-Nazorat ishi	1		
9.	Xiva xonligini tashkil topishi	1		
10.	Xiva xonligini tashkil topishi	1		
11.	Qo‘ng‘irotlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot	1		
12.	Qo‘ng‘irotlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot	1		
13.	Qo‘ng‘irotlar davri me'morchiligi	1		
14.	Qo‘ng‘irotlar davri me'morchiligi	1		
15.	Xiva – ming gumbazli shahar	1		
16.	XVI-XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar	1		
17.	Qoraqalpoqlar turmush tarzi	1		
18.	Qoraqalpoqlarning madaniy hayoti	1		
19.	6-Nazorat ishi	1		
20.	Farg‘onada minglar hukmronligi davri	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Ashtarxoniyl davrida binokorlik va ta'lim (Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonini e'lon qilish)

Darsning maqsadi:

Tarbiyaviy: o'quvchilarga ajdodlarimiz barpo etgan ulkan madaniyat namunalaridan tortib, oddiy xo'jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo'lgan voqealar mustaqil ishlashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, ajdodlarimizning jasorati, amalga oshirgan buyuk ishlari, qalblarida vatanparvarlik hissini uyg'otish, Vatan manfaatlarini himoya qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'z Vatanimiz tarixini bilishi va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatini hurmat bilan qarashi, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda mediamadaniyatga rioya qilish;

ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: kompetensiya

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish; badiiy va san'at asarlarini tushunish, ta'sirlana olish;

orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;

xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, ta'lim muassasasida va jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa


I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Me'morchilik

Ashtarxoniylar davrida ham Samarqand va Buxoro mamlakatning yirik madaniy markazlari maqomini saqlab qoldi. Yirik amaldorlar, ulamolar vajamiyatning boshqa vakillari tomonidan saroylar, madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, bozorlar, karvonsaroylar va boshqalar qurdirildi. Samarqandda qozi Soqiy tomonidan qurdirilgan madrasa, Yalangto'sh Bahodir tomonidan qurdirilgan Sherdor va Tillakori madrasalari, Sayyid Ahmadxoja madrasasi, Nodir devonbegi madrasalari shular jumlasidandir. Buxoroda ikki qavatli Mag'oki ko'rpa masjidi, zargarlar bozori yaqinida joylashganligi uchun "Zargarlar madrasasi" deb ham ataluvchi Abdulazizxon madrasasi, Xiyobon, Bozori Go'sfand va Jo'ybori Kalon madrasalari ham bunyod etildi. XVII asrda madrasa va masjidlar qurilishida ashtarxoniylar davrida yuqori nufuzga ega bo'lgan ayrim amaldorlar ham o'z hissalarini qo'shishdi. Shunday shaxslardan biri XVII asrning birinchi yarmidagi yirik amaldor va vazir Nodir devonbegi bo'lib, uning mablag'iga butun me'moriy ansambl - xonaqoh, hovuz va madrasa bunyod etilgan. U tomonidan bundan ilgariroq Buxoro Registonidagi Ark devorlari ostida Poyandabiy otaliq masjidi ham qurilgan. Telpakfuruslar gumbazidan Registonga olib boruvchi yo'lda, Bozori-av degan joyda Abdulazizxonning amaldori Muhammadyor otaliq tomonidan xonaqoh quriladi. Shu asrda bu markazda Bolohovuz masjidi ham bunyod etiladi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Samarqanddagi Registon maydonida joylashgan inshootlarning nomini bilasizmi? Bu inshootlar kim tomonidan qurilgan va ular qanday maqsadlarga xizmat qilgan?
2. Nima deb o'ylaysiz, bu inshootlar qancha vaqtda, qanday mehnat qurollari va qurilish ashyolari bilan barpo etilgan? Ularda qancha odam ishlagan bo'lishi mumkin? Bu inshootlarni qurish uchun qaysi kasb egalari jalb qilingan?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Mang‘itlar boshqaruvi davri

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: darsda XV asrgacha sodir bo‘lgan voqealar bilan tanishtirish, jumladan, Vatanimiz tarixida muhim rol o‘ynagan Birinchi va Ikkinchi Renessansga asos bo‘lgan jarayonlarni o‘rganish. Tariximizni o‘rganish mobaynida, qalblarida faxr va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga ajdodlarimiz barpo etgan ulkan madaniyat namunalaridan tortib, oddiy xo‘jalik hayotida erishgan kichik yutuqlarigacha bo‘lgan voqealar mustaqil ishlashga o‘rgatish, o‘quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, ajdodlarimizning jasorati, amalga oshirgan buyuk ishlari, qalblarida vatanparvarlik hissini uyg‘otish, Vatan manfaatlarini himoya qilishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, o‘z Vatanimiz tarixini bilishi va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatini hurmat bilan qarashi, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlash olish; muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishonтира bilish; turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e‘lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

XVIII asr o'rtalarida Buxoro xonligida siyosiy va iqtisodiy inqiroz XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi tarkibidan Farg'ona vodiysi ajralib chiqishi mamlakatning bekliklarga bo'linish xavfini keskin kuchaytiradi. XVIII asr 40-yillariga kelib esa Buxoro xonligida siyosiy va iqtisodiy inqiroz yanada kuchayadi. Ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili Abulfayzxon siyosati natijasida xalqning moddiy ahvoli og'irlashadi.

Eron shohi Nodirshohning Buxoro davlatiga hujumi, mamlakatning asosiy shaharlari bo'lgan Buxoro va Samarqandning ular tomonidan egallanishi va talanishi oqibatida siyosiy vaziyat yanada murakkablashadi. Ana shunday qaltis va nozik bir fursatda Buxoroda hokimiyat tepasiga mang'itlar suiolasi keladi. Ashtarxoniylar saroyida dastlab miroxur va parvonachi lavozimlarida ishiagan Muhammad Hakimbiy qisqa fursatda Buxoro xonligidagi mang'itlar qavmining yo'l boshchisiga aylanadi. Muhammad Hakimbiy ko'p sonli mang'itlar qavmi va urug' yo'l boshchilariga tayanib, qatag'on va kenagas urug'lari, jumladan, shahrisabzlik Ibrohim Kenagasning qavmlariga qarshi Buxoroda markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun qattiq va murosasiz kurash olib boradi. Tez orada u saroyda devonbegi lavozimini egallaydi. Abulfayzxon tomonidan Muhammad Hakimbiy saroydagi barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig'i etib tayinlanadi hamda unga otaliq unvoni beriladi. Muhammad Hakimbiy otaliq va qushbegi - bosh vazir sifatida mang'itlar sulolasining Buxoroda hokimiyat tepasiga kelishi uchun yetarlishart-sharoityaratib bergan. 1743-yilda Muhammad Hakimbiy vafotidan so'ng uning o'g'li Muhammad Rahimbiy o'zining muntazam qo'shinga egaligidan foydalanib, hokimiyatga intiladi. Abdulfayzxon uni otasining o'rniga tayinlashga majbur bo'ladi. 1747-yilda Eron shohi Nodirshohning o'ldirilishi Muhammad Rahimbiyning Buxoro taxtini egallashiga yo'l ochadi. 1756-yilda u hokimiyatni to'la egallaydi. Biroq mang'itlar chingiziy bo'lmaganligi uchun Muhammad Rahimbiy o'zini xon emas, amir deb e'lon qiladi. Shu davrdan boshlab davlat nomi Buxoro amirligi deb yuritila boshlanadi. Muhammad Rahimbiy yirik yer egalarning davlatni boshqarish ishlarida shu vaqtgacha davom etib kelgan aralashuvlarini keskin kamaytirishga erisha oladi. Uning o'limidan so'ng hokimiyat amakisi Doniyolbiyga o'tadi. O'limidan oldin Doniyolbiy to'ng'ich o'g'li Shohmurodni o'zining vorisi deb e'lon qiladi. U o'zini diniy ishlarga bag'ishlab, ilohiyotga oid risolalar yozadi. 1785-yilda Buxoro shahrida kelib chiqqan qo'zg'olon natijasida mingdan ortiq kishi halok bo'ladi. Shunday sharoitda hokimiyatga amir Shohmurod keladi. U hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki kunlaridanoq poytaxt shahar aholisining talablarini qondirishga harakat qiladi. Buxoro aholisiga ularni turli soliqlardan ozod etuvchi tarxon yorlig'ini beradi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. 1740-yilda Buxoro tarixida qanday voqea yuz bergan edi? Bu voqeadan so'ng Abulfayzxonning taqdiri qanday kechgan?

2. Abulfayzxonning hukmronligi ashtarxoniylarning maqomiga qanday ta'sir o'tkazgan?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti *orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

40 listdan iborat O‘zbekiston tarixi fanidan 9-sinf III chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**